



## XALQ DEPUTATLARI MINGBULOQ TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr

VII-13-118-6-81-K/25

Mingbuloq tumani

**2026-yilda Mingbuloq tumani bo'yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va yer qa'ridan foydalanganlik uchun bazaviy soliq stavkalariga qo'llaniladigan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo'llash to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasining "2026-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi O'RQ-1108-sonli Qonuni, O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrda "Soliq va byudjet siyosatining 2026-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 445-452-moddalariga muvofiq, Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-yil 17-dekabrda 03/41-4-28285-sonli topshiriq hatii ijrosini ta'minlash maqsadida, hamda "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari Mingbuloq tumani Kengashi

### **QAROR QILADI:**

1. O'zbekiston Respublikasining "2026-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi O'RQ-1108-sonli Qonuniga, O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrda "Soliq va byudjet siyosatining 2026-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 445-452-moddalari ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman Soliq inspeksiyasi hududlarning iqtisodiy rivojlanganlik darajasi hamda tuman hokimligining 2026-yil uchun belgilangan mahalliy byudjet prognozidan kelib chiqib, tuman bo'yicha 2026-yilda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalarining mutlaq miqdorlariga nisbatan kamaytiriluvchi va oshiriluvchi koeffitsientlarni qo'llash bo'yicha takliflari inobatga olinsin.

3. 2026-yil uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga 2026-yil uchun qo'llaniladigan koeffitsientlar 1-ilovaga hamda noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat'iy stavkalariga 2026-yil uchun qo'llaniladigan koeffitsientlar 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (A.Abdusalomov), tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari (Z.Jurabayev), tuman Davlat soliq inspeksiyasi (J.Anvarov) bilan birgalikda mazkur qaror o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta‘minlash choralari ko‘rsin.

5. Tuman hokimligi Axborot xizmati hamda “Mingbuloq” gazetasi tahririyatiga mazkur qarorni ommaviy axborot vositalarida yoritilishi ta‘minlasin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirsin.

6. Mazkur qarorning ijrosini ta‘minlash tuman hokimining birinchi o‘rinbosari A.Abdusalomov, nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy byudjetni shakillantirish, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiya zimmasiga yuklatilsin.

**Kengash raisi**



**MANSUROV  
AXROR  
AXMADALIYEVICH**



